

KASB-HUNAR NOMLARINI IFODALOVCHI APELLYATIVLARNING ANTROPONIMLASHUVI XUSUSIDA

Karimov Shoxjaxon,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
shoxjaxonkarimov555@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o'zbek tilidagi kasb-hunar nomlari lug'aviy asos qilib olingan apellyativlarning antroponimlashuvi xususida fikr yuriladi hamda misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Apellyativ, antroponimlar, lug'aviy asos, kasb-hunar, etnografik odatlar, ijtimoiy omillar.

O'zbek lingvomadaniyatida kasb-hunar nomlari lug'aviy asos qilib olingan antroponimlar guruhi kishilarning oilaviy holda o'z bobo va buvilari, o'tmish avlodlari, qarindoshlari mashg'ul bo'lgan ma'lum kasb yoki hunarni qadrlashi, e'zozlashi, yangi tug'ilgan farzandni kelgusida oilaviy an'analarni davom ettirib, shunday kasb-hunar egasi bo'lishini niyat, tilak qilish yoki biror kasb-hunar egasiga havas qilish kabi ijtimoiy omillar, etnografik odatlar asosida yuzaga kelgan: *Podabon, Mirshab, Kosiba, Suvchiboy, Yilqichi, Qovunchi, Cho'liq, Chilangar, O'qchi, Ipakchi* kabi"[4, 85].

Antroponimlar sohasini uzoq yillar tadqiq qilgan tilshunos olimlarimizdan E.Begmatov o'zbek tilidagi antroponimlarning lug'aviy asoslari tahlilida kasb-hunar nomlari asosida shakllangan kishi ismlarini alohida guruh sifatida qayd etadi[1, 111]. O'zbek tili antroponimiyasida tarixiy va zamonaviy kasb-hunar nomlarini ifodalovchi o'z va o'zlashma qatlamga mansub ot apellyativlarni konversiya usulida antroponimlarga o'tishi kuzatiladi:

Adib [a.] – yozuvchi; ustoz, murabbiy, tarbiyachi.

Adiba [a.] – yozuvchi qiz; nazokatli, tarbiyali qiz.

Voiz [a.] – va'z aytuvchi, va'zgo'y, diniy tariqat targ'ibotchisi, notiq. Shakllari: *Voizxon, Voizqul.*

Gulsoz [f.] – gulchi, gullarni parvarish qiluvchi qiz.

Gulchi [f.–a.] – gul ekuvchi yoki gul sotuvchi qiz.

Zargar [f.] – tillo buyumlar ustasi.

Yilqichi [o‘z.] – ayn.: ot boquvchi, ya’ni otlari serob, boy-badavlat bo‘lsin.

Jibachi [o‘z.] – jiba (metaldan to‘qib yasalgan harbiy kiyim, sovut) yasovchi yoki o‘tmishda Buxoro amiri saroyidagi quyi mansablardan birining nomi.

Kotib [a.] – o‘qimishli, savodxon.

Muallim [a.] – o‘rgatuvchi, o‘qituvchi, ustoz.

Muallima [a.] – o‘qituvchi, o‘rgatuvchi ayol.

Mudarris [a.] – madrasa muallimi; ilohiyot o‘qituvchisi; ustoz, murabbiy.

Musavvir // musavvur [a.] – rassom, naqqosh, suratkash.

Musavvira [a.] – rassom, suratkash qiz.

Muxbira [a.] – matbuotch (jurnalist) qiz.

Notiq [a.] – gapga chechan, so‘z ustasi; fasohat sohibi.

Notiqa [a.] – gapga usta, so‘zga chechan, tili burro qiz.

Noshira [a.] – nashr etuvchi, ma’rifatli, o‘qimishli, bilimdon.

Olima [a.] – bilimdon, donishmand qiz.

Rassom [a.] – suratkash, san’atkor.

Raqqosa [a.] – o‘yinchi qiz, san’atkor qiz.

Sarrof [a.] – ayn.: pul almashtiruvchi, pullarni maydalovchi: qimmat tangalar, toshlarni aniqlab, farqlab beruvchi; zarshunos.

Sayyod [a.] – ovchi.

Sayyoda [a.] – ovchi qiz.

Shoir [a.] – shoir, go‘zal nutq sohibi, notiq bo‘lsin.

Shoira [a.] – sog‘ ulg‘ayib she’rlar ijod qiluvchi bo‘lsin.

O‘qchi [o‘z.] – o‘q otuvchi, mergan; ovchi bola.

O‘roqchi [o‘z.] – g‘alla o‘rimi paytida tug‘ilgan bola.

S.Kenjayeve kasb-hunar nomlari lug‘aviy asos qilib olingan, bolani yaxshi kasb, hunar egasi, sohibi bo‘lish istagi motivatsiyasi asosida yuzaga kelgan ismlarni istak ismlar sirasiga kiritadi va ularni sohaviy mansubligi nuqtayi nazaridan chorvadorlik, dehqonchilik, ovchilik, ipakchilik, tikuvchilik, zargarlik, chevarlik, savdo-sotiq, ustachilik, duradgorlik, yozuvchilik, san’atkorlik kasbi bilan bog‘liq ismlarga guruhlaydi[2, 8].

M.Muhammadaliyeva o‘zbek tilidagi kasb-hunar nomlarining leksik-semantik xususiyatlari negizida kasb-hunar nomlaridan yasalgan antroponimlarni o‘rgangan [4, 85]. S.Kenjayeve, M.Muhammadaliyevalarning tadqiqotlariga tayangan holda, bolani yaxshi kasb, hunar egasi bo‘lish motivatsiyasi asosida kasb-hunar nomlari

mavzuiy guruhiga mansub ot apellyativlar konversiyasidan hosil bo'lgan antroponimlarni quyidagicha guruhlashni lozim topdik:

a) chorvachilik bilan bog'liq kasb-hunar nomlarini ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan ismlar: *Sarbon, Karvon, Cho'pon, Cho'liq, Qo'ychi* kabi;

b) dehqonchilik bilan bog'liq kasb-hunar nomlarini ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan ismlar: *Ziroat, Gulchi, Gulsoz, Gulchin, Dehqon* kabi;

v) ovchilik bilan bog'liq kasb-hunar nomlarini ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan ismlar: *Mergan, Ovchi, Sayyod, Sayyoda*;

g) tikuvchilik, ipakchilik, zargarlik bilan bog'liq kasb-hunar nomlarini ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan ismlar: *Zargar, Ipakchi, Chevar* kabi;

d) savdo-sotiq bilan bog'liq kasb-hunar nomlarini ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan ismlar: *Alob//Allob, Attor, Bazzoz* kabi;

e) ustachilik, duradgorlik bilan bog'liq kasb-hunar nomlarini ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan ismlar: *Najjor, Sarroj, Saffor, Chilangar* kabi;

yo) san'at bilan bog'liq kasb-hunar nomlarini ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan ismlar: *Adib, Adiba, Musavvir, Musavvira, Oqin, Rassom, Raqqosa, Shoir, Shoir* kabi.

j) ta'lim-tarbiya bilan bog'liq kasb-hunar nomlarini ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan ismlar: *Muallim, Muallima, Murabbiya* kabi;

z) jurnalistlik va noshirlik bog'liq kasb-hunar nomlarini ifodalovchi apellyativlar konversiyasi asosida yuzaga kelgan ismlar: *Muxbir, Muxbira, Noshir, Noshira* kabi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, bolani yaxshi kasb-hunar egasi bo'lishini istash, orzu-niyat qilish motivatsiyasi, kasb-hunar ifodalovchi so'zlarni ismga o'tishi faqat o'zbek tilida bo'libgina qolmay, balki boshqa xorijiy, turkiy, jumladan, tatar, boshqird tillarida ham faol kuzatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бегматов Э. Ўзбек тили антропонимикаси. – Тошкент: Фан, 2013. – 111-б.
2. Kenjayeva S. O'zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi: filol. fan. bo'yicha falsafa dok. dis. – Qarshi, 2019. – 138 b.
3. Кусимова Т.Х. Древнебашкирские антропонимы: автореф. дисс... канд. филол. наук. – Уфа, 1975. – С. 29.

4. Мухаммадалиева М.Н. Ўзбек тилидаги касб-ҳунар номларининг лексик-семантик ва деривацион хусусиятлари: филол. фан. фалсафа док... дисс. – Фарғона, 2021. – 85-б.
5. Саттаров Г.Ф. Татар антропонимикасы. – Казань: КазДУ, 1990. – 131-134, 183-б.
6. D.Islamova. Hamid Olimjonning «O‘zbekiston» she’rida qo‘llanilgan transpozitiv so‘zlarning uslubiy va funksional-semantik xususiyatlari. SamDU “Ilmiy axborotnoma”. – Samarqand: SamDU nashri, 2018. № 4. – В. 99-102.
https://www.samdu.uz/upload/contentfiles/110x8f29IQ7Cs_ilmiy_jurnal.pdf#page=105